

**MUSIQA MASHG‘ULOTLARI JARAYONIDA O'ZBEK XALQ
MUSIQASINING RIVOJLANISHI**

Mamajanova Muslimaxon Baxtiyor qizi

Guliston Davlat Universiteti talabasi

Ilmiy raxbar: Annakulova Dildora Baymuratovna

Guliston Davlat Universiteti

San'atshunoslik fakulteti

An'anaviy xonandalik va xalq cholg'ulari

kafedrası o'qituvchisi

E-mail:dildoraannakulova36@gmail.com

+998998221180

Anotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek musiqiy an'analari, musiqiy cholg'ular, va ularning bolalar tarbiyasidagi ahamiyati haqida juda keng qamrovli va batafsil ma'lumot beriladi. Maqolada O'zbek xalq musiqasining rivojlanishi, tarixiy allomalar tomonidan yozilgan risolalar, shuningdek, musiqiy cholg'ularga oid nazariy va amaliy qarashlar ta'kidlangan. Shuningdek, musiqiy tarbiya va bolalar musiqiy ijrochiligi bo'yicha pedagogik yondoshuvlar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Bu matn musiqa ilmining tarixini va uning bolalar tarbiyasidagi o'rnini tushunishga yordam beradi. Musiqiy qobiliyatlarni rivojlantirish, musiqiy madaniyat asoslarini shakllantirishni maktabgacha yosh davrida boshlash maqsadga muvofiq.

Kalit soʻzlar: Musiqiy faoliyat, bolalar uchun musiqa tarbiyasi, musiqiy cholg'ular, musiqiy ijro, musiqa qobiliyatlari, musiqiy asboblar.

Аннотация: Данная статья предоставляет исчерпывающую и подробную информацию об узбекских музыкальных традициях, музыкальных инструментах и их значении в воспитании детей. В статье освещается развитие узбекской народной музыки, трактаты историков, а также теоретические и практические взгляды на музыкальные инструменты. Также представлена информация о педагогических подходах к музыкальному образованию и детскому музыкальному исполнительству. Текст помогает понять историю музыкологии и её место в воспитании детей. Целесообразно начинать развитие музыкальных способностей и формирование основ музыкальной культуры в дошкольном возрасте.

Ключевые слова: Музыкальная деятельность, музыкальное образование детей, музыкальные инструменты, музыкальное исполнение, музыкальные способности, музыкальные инструменты.

Abstract: This article provides comprehensive and detailed information about Uzbek musical traditions, musical instruments, and their importance in raising children. The article covers the development of Uzbek folk music, historical treatises, and theoretical and practical views on musical instruments. It also provides information on pedagogical approaches to music education and children's musical performance. The text helps understand the history of musicology and its place in raising children. It is advisable to begin developing musical abilities and laying the foundations of musical culture in preschool children.

Key words: Musical activity, musical education of children, musical instruments, musical performance, musical abilities, musical instruments.

Kirish: Musiqiy faoliyat nafaqat musiqani idrok etish, balki bolalar uchun qulay bo‘lgan idrok etish tajribasiga asoslangan ijrochilik: kuylash, , musiqiy-ritmik harakatlarni ham o‘z ichiga oladi. Kuylash, cholg‘u asboblarni chalish orqali boshqa bir musiqiy qobiliyat – kuyda (ohangda) musiqiy tovushlar balandligini tasavvur qilish va qayta yaratish malakasini rivojlantirish mumkin. Bu qobiliyatni rivojlantirish aqliy operatsiyalar: qiyoslash, tahlil, taqqoslash, eslab qolishni nazarda tutadi, shu tariqa bolaning nafaqat musiqiy, balki umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir etadi.

Tarixdan ma’lumki, o‘zbek xalq cholg‘ulari rang-barang tarzda, oziga xos shakllardan va musiqaning barcha tarmoqlariga mos ravishda shakllanib, asrlar osha rivoj topib kelgan. Buyuk allomalarimiz Abu Nasr Farobiy (IX asr) o‘zining “Katta musiqa kitobi”da, Safiuddin Urmaviy (XII asr) Musiqiy risolasida, Abdulqodir Marog‘iy (XIV asr) “Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy” risolasida, Ahmadiy (XIV asr) “Sozlar munozarasi” asarida, Zaynullobiddin Husayniy (XV asr) “Risola dar bayoni qonuni va amali musiqiy” risolasida, Abdurahmon Jomiy (XV asr), Amuliy (XVI), Darvesh Ali Changiy (XVII) musiqiy risolalarida musiqiy cholg‘ularni o‘rganib, tadqiq etish masalalarini turli tomonlariga to‘xtalib, o‘z davrining musiqiy cholg‘ulari tasnifotini bayon etganlar. O‘tmishning zabardast shoirlari o‘z asarlarida musiqiy cholg‘ular nomlari va ularning mohir ijrochilarini qayd etishda cholg‘ularga murojaat etganlar.

Ayniqsa, o‘z ijodi bilan ma’rifat darajasiga erishgan buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy hazratlari musiqa ilmining eng nafosatli va mumtoz tarmoqlariga urg‘u berib o‘tganlarini ul zotning asarlaridan bilib olish mumkin. XX asrga kelib Eyxgorn, Abdurauf Fitrat, Viktor Belyayev kabi olimlar musiqiy cholg‘ular va ularda ijrochilik masalalarini o‘rganish xususida samarali harakatlarni amalga oshirganlar.

Asosiy qism: Tarixiy qo‘lyozmalar, adabiy asarlar va musiqiy risolalarda O‘rta Osiyo xalqlari cholg‘u ijrochiligi amaliyotida vujudga kelgan

cholg'ularning nomlari o'z ifodasini topgan. Musiqiy risolalarda esa cholg'ularga tegishli (shakl, tuzilish, torlar nisbati, sozgarlik mezonlari, cholg'ular tayyorlashda ishlatiladigan daraxtlar va materiallar haqida malumotlar keltirilgan.

Ularda torli cholg'ulardan: Borbad, Ud, Rud, Qo'biz, G'ijjak, Navha, Nuzxa, Qonun, Chang, Rubob, Tanbur, Dutor;

Damli cholg'ulardan: Ruhafzo, Shammoma, Organun, Sibizg'i, Nayi anbon, Chag'ona, Bulamon, Surnay, Nay, Qoshnay, Karnay;

Urma zarbli cholg'ulardan: Daf, Doira, Nog'ora, Safoil kabilar to'g'risida turli darajadagi ma'lumotlar keltirilgan.

Sharq olimlarining nazariy qarashlari musiqa tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ular o'z risolalarida musiqa cholg'usini jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati haqida atroflicha ma'lumot berganlar. Abu Nasr Muhammad Forobiyning (873-950) "Musiqa haqida katta kitob" ("Kitob al-musiqa al-kabir"), Abu Ali Ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitob um-shifo") qomusidagi "Musiqa haqida risola", Al Xorazmiyning X asr "Bilimlar kaliti", Safiuddin Urmaviyning (1216-1294) "Oliyjanoblik haqida kitob" yoki "Sharafiy kitobi", Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) "Musiqa haqida risola" kitoblarida musiqa ijrochiligi va halq cholg'u asboblari haqida muhim ma'lumotlar berilgan.

Safiuddin Urmaviy istedadli ud cholg'uchisi Urmiya shaxrida tug'ilgan (Ozarbayjonlik) mashhur xonanda, uning eng katta yutug'i "Modius" ladning mukammal yo'nalishlarini ishlab chiqqanligidir. Ibn Zaylning VI asr "Musiqa xaqida to'liq kitobi" va "Kitob ul-kabi fil-musiqiy" uning musiqa ilmidagi yagona va bebaho kitobdir. U yangi usulni, musiqada lادلarni harflar bilan ifodalash usulini ishlab chiqdi. Abduqodir Marog'iy XV asr, Ozarbayjonning Marog' shahrida tug'ilgan bo'lsada, hayotining ikkinchi yarmi Temur saroyida Samarqandda o'tgan va Hirotda vafot etgan. "Musiqa ilmda ohanglar to'plami" ("Jami al-alhon fi-ilm al-musiqiy") risolasida musiqa haqidagi

ta'limotni kamoncha, yetti torli g'ijjak kabi bir turdagi musiqa cholg'ulari borligi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitdi.¹

Al-Husayn XV asr asosan O'rta Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan torli musiqa asbobi dutor haqida ma'lumot bergan. Qutbiddin ash-Sheroziy (1236-1310) eronlik musiqa nazariyotchisi sifatida tanilgan bo'lib, o'z risolasida kamonchali tanbur (sato) haqida ibratli mulohazalar bildirgan hamda inson ovozing musiqa asboblari ichida eng yoqimlisi deb hisoblagan.

Al Forobiy (IX asr) mohir ijrochi sifatida ham tanilgan. U damli cholg'u nay asbobini, torli mizrobli cholg'u tanbur va ud musiqa asboblarini juda zo'r mahorat bilan ijro etgan. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqa cholg'u asboblarining jamiyat hayotidagi rolini o'rganishga ahamiyat beradi va u "Jangu jadallarda, raqslarda, to'y-tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq va muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan cholg'ular bor", deb yozgan edi. Kitobning ikkinchi qismida halq cholg'ulari lyutnya, tanbur, ud, nay, rubob, chang, shoxrux, qonun, dutor va boshqa cholg'ular izchil va batafsil ta'riflanadi. Lyutnya-torli mizrobli cholg'usi o'sha davrda eng keng tarqalgan bo'lib, o'ziga xos mizrob (chertma) vositasida chalingan, dastasida esa ligatura (lada) lar joylashgan.

IX-X asrlarda lyutnya arabcha ud nomini oladi. Bu cholg'u asbobi ko'pgina Sharq mamlakatlarida, Kavkazorti xalqlari orasida, O'zbekiston va Tojikiston cholg'uchiligida hozirgi kungacha saqlanib kelayapti. (Zamonaviy ud namunalari T.D.K. ning sohaviy-tajribaviy sinovxonasida mavjud) "Musiqa xaqida katta kitob" da Forobiy yana bir cholg'u asbobi tanburni ta'riflaydi. Olimning fikricha, tanbur forscha tan-bur ya'ni (Dilni tirnash) ud cholg'usiga yaqin turadigan cholg'udir deydi. Forobiy shuningdek nayni ham ta'riflaydi. U turli xil damli musiqa cholg'ularini ovoz hosil qilish uslubiga ko'ra naysimon guruhga kiritadi, ya'ni nay quvurida havoning damli harakati orqali, tovush hosil bo'ladi. Ulardan biri oddiy nay, yoki bir yo'nalishda joylashgan ko'p teshikli nay. Bu turdagi bo'ylanma naylar yoki turlicha

ataluvchi naylar hozirgi kunda ham Sharq xalqlari orasida mavjud. Uning Vetnamliklar sao, tojiklar tutek, tatarlar kaval, qozoqlar sibizg'a, Ozarbayjonliklar nay (juda kam uchraydi), qirg'izlar uo, choor (cho'ponlarning cholg'u asbobi) o'zbeklar nay deydi.

¹ Matyoqubov O. Maqomot. (ilmiy-ommabop monografiya) T., 2004.

Forobiy, shuningdek, Dunay, (Mizmar) ni ham alohida tilga oladi. Dunay hozirda qo'shnay yoki turkman cholg'usi gosha-dilli tyuy dyuk (qo'sh qamishdan yasalgan cholg'u) ga o'xshatadi.

Forobiy o'z risolasida o'zi yashagan davrda mavjud bo'lgan rubobni ham batafsil ta'riflaydi. O'sha davrdagi rubob ham hozirgi qashqar rubobiga o'xshash bo'lib, pardalari dutor pardalariga o'xshagan, dastasi ancha uzun bo'lganligini, asosiy qismini yog'och dekali pastki qismi esa charmdan ishlangan, dekali musiqa cholg'usi deb ta'riflaydi. Shuningdek, musiqa asbobi changni ham ta'riflaydi. O'sha vaqtgacha changning 15 ta tori bo'lgan, ular diatonik sozlangan va ikki oktava oralig'iga teng tovush qatorga ega deydi. Yana Forobiyning guvohlik berishicha ud cholg'usi ansambl ijrochiligida yetakchi rol o'ynagan "Cholg'u asboblari haqida kitob" ida olim tanbur, rubob, chang, cholg'u asboblarni udda chalayotgan kuyga yoki yakka navoz xonandaga, uyg'un jo'r bo'lish, uchun sozlash usullarini tushuntiradi.

Shunday qilib, Sharqning ulug' allomasi Al-Forobiy musiqa ilmining bir bo'limi sifatida cholg'u asboblarni o'rganuvchi cholg'ushunoslik sohasiga asos soladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) o'z davri musiqa cholg'ularini ikki guruhga bo'ladi: Mizrobli, noxunli, (Borbad, tanbur, rubob) va butun rezanator qapqog'i bo'ylab tortilgan ochiq cholg'u asboblari (shohrux, chiltor, lira), chang (arfa). Olim, ohangi inson ovozigacha yaqin turadigan cholg'u asboblari ud, rubobni batafsil ta'riflagan.

O'sha davrda yashab ijod etgan Safiuddin Urmaviy musiqa ilmini tizimini (sistemi) ni rivojlantiradi. U "Taqvadorlik kitobi" da ud cholg'usini ta'riflaydi: "Bilginki, cholg'u asboblari ichida ud asbobi eng mashhur va zamonaviydir". Udning dastasining to'la chizmasi, uni sozlash haqida tasavvur beradi. A. Navoiyning tasdiqlashicha, mavjud 12 maqom qadimiy musiqaning asosidir.

Marog'iy (XIV asr) g'ijjakning ipak yoki pay torlari jez torlariga nisbatan ancha yaxshi va mayin ohang beradi deydi, o'zining g'ijjak yasash usuli haqida bergan ma'lumotlarida.²

Qo'sh torli cholg'u asbobi dutor haqida ilk ma'lumotlar Al-Husayniy (XV asr) ning musiqa kononlarida uchraydi. "Dutor" atamasining paydo bo'lishiga, uning shaklan o'xshash, ko'p torli boshqa cholg'u asboblardan (Ozarbayjoncha soz, ud, tanbur kabi) farqlash asosiy sabab bo'lgan. XVII asrning mashhur ud va chang cholg'usi ijrochisi Darvish Ali o'zining risolasida o'sha davrda qo'llanilgan cholg'u asboblari haqida batafsil ma'lumot bergan. U udni cholg'ular "Shohi" deb ataydi. Udning juft sozlagan o'n ikki tori bo'lgan. Farobiy davridagi dastlabki uddan bir muncha farq qilgan. Risolada yozilishicha chang cholg'ular homiysi Zuhroga bag'ishlangan. Koreya musiqasi haqida birinchi eslatma antik davrga borib taqaladi. U Xitoy va O'rta Osiyo ta'sirida bo'lgan, u yerdan ko'plab asboblari: torlar, nog'oralar va naylar olib kelingan.

²Annakulova D MUSIQA MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA CHOLG'U ANSAMBLARINI TASHKILLASHTIRISH. (2025). *Modern Education and Development*, 21(1), 192-202. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/3970>

O'rta asrlarda Koreya yarim orolida moslashtirilgan xitoy saroy musiqasi ijro etilib, xalq musiqasi janrlari parallel ravishda rivojlana boshladi. Joseon

sulolasi davrida Xitoyning saroy musiqasiga ta'siri pasaydi, mo'g'ul va yapon bosqinchilariga qarshi kurash davrida uning rivojlanishi to'xtatildi. Bu davrda xalq musiqasi rivojlanib, pansori, sanjo, pungmul va boshqa janrlar paydo bo'ldi.

Yaponiya istilosidan so'ng Yevropa musiqasi Koreyaga kirib keldi. Ayrim folklor janrlari (pansori, sanjo) ma'qullandi va mustamlaka hokimiyatlari davrida ishlab chiqildi, boshqalari, ayniqsa marosim musiqasi bilan bog'liq bo'lganlar yo'qoldi. 1948 yilda Koreya musiqaga o'z yondashuvlarini ishlab chiqqan Janubiy va Shimolga bo'lingan. Shimolda mafkuraviy maqbullik musiqaning eng muhim xususiyatiga aylandi, Yevropa musiqa an'alariga asoslangan xalq janrlari va janrlari rivojlanmoqda.

O'zbekistonda 2016 yilning 13—22 oktyabr kunlari Koreya madaniyati festivali Korea Festival 2016 bo'lib o'tdi. Diplomatik missiyaning ma'lum qilishicha, festival Toshkent, Samarqand va Buxoro shaharlarida o'tkazilindi. Festival Koreya respublikasi tashkil topgan kun – 12 oktyabrda rasmiy qabul bilan boshlandi..

Festival doirasida 15 oktyabr kuni Sookmyung Gayageum va B-boy orkestri ishtirokida Koreya fyujn musiqasi konserti bo'lib o'tdi. Korea Festival 2016 bilan bir qatorda Koreya respublikasi ta'lim markazi yil davomida turli madaniy tadbirlarni o'tkazadi. Ular orasidan notiqlik san'ati, koreys tilida insho yozish, an'anaviy o'yinlar, koreyscha qo'shiqlar tanlovi, Koreyaning an'anaviy bayramlari bilan bog'liq tadbirlar o'rin olgan. [<https://sof.uz/uz/post/o-zbekistonda-koreya-madaniyati-festivali-bo-lib-o-tadi>]

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda doston ijrochiligi an'alaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu an'alarining bardavomligini shubhasiz baxshilar ijodiyotisiz

tasavvur qilish mumkin emas. Doston ijrochilari hisoblangan baxshilar tomonidan doston va terma ijro etish va tarqatishning uchta asosiy shaklini kuzatish mumkin. Bular: prozaik, rapsodik va aytim yillari shular jumlasidandir. Odatda doston ijrosida prozaik shaklining mavjudligi bejiz emas, chunki doston proza, avvalambor, o'zining musiqiy tili mavjud. Prozaik hikoya va ohangda ifodalanuvchi parchalar bir-biriga aralashishi hikoyalar uchun eng tipikdir.³

O'tgan asrning 20-yillaridayoq bolalarni musiqa cholg'ularini chalishga o'rgatish tashabbuskori musiqa arbobi va pedagog N.A.Metlov bo'lgan. Bolalar orkestrini tashkil qilish g'oyasi ham aynan shu arbobga tegishlidir. N.A.Metlov tovush qatoriga ega bo'lgan bolalar musiqa asboblari: metallofon va ksilofonni yaratish va takomillashtirish borasida kata ishlarni amalga oshirgan.

Musiqa asboblari chalish – bolalar ijrochiligining turlaridan biri. Bolalar musiqa asboblari va o'yirnoqlaridan (ham mashg'ulotlarda, ham kundalik hayotda) foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy taassurotlarini boyitadi, ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

³Annakulova D BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA DOSTON IJROCHILIGI AN'ANALARIDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI
<https://journals.nuu.uz/index.php/actanuuz/article/view/7175/3349>

Maktabgacha yosh davri musiqiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun tobora sensitiv sanaladi. Bu yosh davrida bolalar bilan olib borilgan tizimli, izchil tarbiya ishlari kelajakda o'z mevasini berishi shubhasiz.³

Musiqa o'z tabiatiga ko'ra insonlar hayotini, ularning turli voqyealarga nisbatan munosabati va ichki kechinmalarni xilma-xil tovush bo'yoqlari orqali

badiiy obrazlar vositasida tasvirlaydi. Musiqa bolalar hissiyotiga kuchli ta'sir eta olishi bilan birga ularni nafosat olamiga olib kiradi. Buning uchun musiqa rahbari, avvalo, bolalarni sevishi, bolalar fiziologiyasi, adabiyot, ona tili hamda mutaxassislik: musiqa o'qitish metodikasi, fortepiano, vokal, musiqa nazariyasi, solfedjio, ritmika, direjyorlik kabi fanlarni puxta bilishi lozim. Musiqa rahbarining bog'cha hayotidagi o'rni beqiyosdir. U o'z kasbiga mehr qo'ygan, yuksak madaniyati, keng dunyoqarashga ega inson bo'lmog'i lozim. Bolaning uch yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan davrini maktabgacha davr, deb hisoblaymiz. Tajribalardan ma'lumki, bolalarda ushbu davrda paydo bo'ladigan taassurotlar umurbod saqlanib qoladi. Bu bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o'sish va dunyoni bilish, atrof-muhitga o'z munosabatini bildirish istagi kuchayib boradigan davrdir. Shu sababli tarbiyachi va ota-onalar bolalarni har tomonlama yetuk bo'lib o'sishlariga jiddiy e'tibor berishlari kerak. Musiqa rahbari tomonidan yaxshi tashkil etilgan musiqiy tarbiya bolalarni barkamol inson bo'lib yetilishlariga ijobiy ta'sir etadi. Bu ishda bolalar bog'chasi pedagogik jamoaning ishtiroki va faoliyati juda muhimdir. Musiqa mashg'ulotlarini gigienik talablarga javob beradigan darajada olib borish musiqa rahbarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bayram ertaliklar bolalar badiiy tarbiyalash shakllaridan biridir. Musiqa rahbari bu ishga ijodiy yondoshib to'g'ri tashkil qilgan bayram va bayram shaklidagi tadbirlar, o'yin-kulgu soatlari, konsert, sayllar, sport bayramlari, nafosat soatlari, ko'ngilochar o'yinlar, bayram ertaliklari, bolalarni kichik yoshdan boshlab ma'naviy ozuqa olishga, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Musiqa rahbari zamon bilan hamnafas qadam tashlashi lozim. U zamonaviy texnik vositalardan foydalana olishi, ko'rgazmali qurollar tayyorlashi bilan birga davlat talablariga muvofiq milliy musiqamiz, qadriyatlarimiz, cholg'usozlarimiz tarixi, mumtoz kuylarimiz, o'zbek xalq musiqasining mahalliy uslublari, termalapar, yalla, alla singari asarlarini mukammal o'rganib, qiziqтира oladigan, kichkintoylarning yoshidan kelib chiqqan holda tushuntiradigan, qiziqтира oladigan, oliy janob,

mehnatkash inson bo'lishi kerak. Shuningdek, uning yangi pedagogik texnologiyalarni musiqa mashg'ulotlariga tatbiq etib, zamon bilan hamnafas qadam tashlamog'i ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ansambllarini tashkil etish borasida ma'lum ishlar qilinyapti. Konurova L.R maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'z ilmiy izlanishlarini olib borayapti, xalq cholg'ularda cholishni o'rgatish tajribasini ommalashtirdi. Shu maqsadda musiqa tarbiyachisi va rahbarlari uchun uslubiy qo'llanma yaratildi.⁴

⁴ КОНУРОВА ЛЕЙЛА РУСЛАНОВНА; НУРАЛИЕВ ЯХШИБОЙ. ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ИГРЕ НА МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. European Journal of Interdisciplinary Research and Development , [S. l.], v. 4, p. 122–126, 2022. Disponível em: <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/74>. Acesso em: 26 feb. 2025.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning musiqiy didini shakllantirishda musiqani ongli ravishda idrok etish ko'zda tutiladi. MTTlarda olib boriladigan barcha musiqiy tarbiyaviy ishlar bolalarda bog'cha yoshidan boshlab oliyjanob fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Bolalar bog'chalarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlar yosh avlodni ma'naviy jihatdan yutuq barkamol inson bo'lib voyaga yetishida xizmat qiladi. Musiqa mashg'ulotlari jarayonida kichkintoylar hayotiy voqeylikni musiqiy obrazlar orqali idrok etib boradilar. Ular yoshiga mos musiqiy asarlar tarbiyalanuvchilarda unutilmas taassurot qoldiradi, ma'naviy dunyosini boyitadi. Bolalar bog'chasida amalga oshiriladigan his eta olish qobiliyati rivojlanib boradi.

Turli cholg‘u sozlardan foydalanib o‘tkaziladigan har bir musiqiy mashg‘ulot kichkintoylarda badiiy nafosat zavqni, mehnat, hisob, atrofdagi olam kabi konkret mashg‘ulotlarda bolalarning abstrakt fikrlashini, mantiqiy xotirani shakllantirish kuchi kabi qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa mashg‘ulotlarida bolalar guruhidan o‘zbek milliy cholg‘u ansamblini tuzish mumkin.

Ansambl fransuzcha «ensemble» so‘zidan olingan bo‘lib, birgalikda degan ma‘noni anglatadi. Ansambl ikki va undan ortiq musiqa ijrochilarining birgalikda ma‘lum bir musiqiy asarni ijro etish jarayoni bilan bog‘likdir. Ansambl tarkibida cholg‘uchilar soni 2 tadan 16 tagacha bo‘lishi mumkin. Cholg‘u ansamblarining ijro etadigan musiqa asari xususiyatiga ko‘ra unison va ko‘p ovozli ansamblga bo‘linadi. Unison ansambli ko‘proq an‘anaviy ijrochilikka xos.

Ansamblarni tashkil etish va uni boshqarish uchun musiqa rahbar o‘zbek xalq cholg‘ularining tarixi, ularning ijro imkoniyatlari, diapazoni, shtrixlari, ansamblidagi vazifasi va o‘rnini yaxshi bilishidan tashqari xalq cholg‘ularidan birortasini mukammal egallagan bo‘lishi foydadan xoli bo‘lmaydi. Musiqa rahbar ansambl a‘zolariga o‘rgatadigan asarini xalq cholg‘usida chalib berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mashg‘ulot boshlashdan oldin cholg‘ularning soziga e‘tibor qaratish lozim. Cholg‘u asboblari kamerton yoki fortepiano cholg‘usiga sozlash tavsiya etiladi.

Ansambl qatnashchilarining to‘g‘ri joylashishi, o‘tirishi, musiqa asbobini to‘g‘ri ushlashi, chiroyli tovush hosil qilishi, shtrixlar, dinamik belgilarga e‘tibor qilishini kuzatish va, o‘z navbatida, xatolarni tuzatib borish rahbarning asosiy vazifalaridan biridir.

Xulosa: Musiqa rahbar jamoa qatnashchilarining ma‘naviy-ma‘rifiy, estetik tarbiyasiga katta e‘tibor berishi, odob-ahloq qoidalari asosida o‘z

qobiliyatlarini takomillashtirib borishlarini kuzatib, ularga ko‘maklashib bormog‘i darkor.

Musiqqa rahbar ansamblga o‘rgatadigan asarini mukammal bilishi, uning yaratilish tarixi va boshqa kerakli ma’lumotlar, jumladan, o‘lchovi, usuli, dinamik belgilari, asarning bastakori haqida tushuncha berishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu ma’lumotlar qatnashchilarga chalinayotgan asar haqida tasavvur hosil qilishiga yordam beradi. Shuningdek, rahbar ijrochilik mahoratiga aloqador vazifalarni aniq belgilab berib, uning bajarilishini qat’iy talab qilishi lozim. Berilgan vazifalarning bajarilishini to‘g‘ri talab qilish ijodiy birlik, asarning muvaffaqiyatli ijrosining garovidir musiqqa rahbar ansambl bolalari bilan muomala qilishda, albatta, o‘z uslubini topishi kerak. Asarning yaxshi ijrosi har bir cholg‘uchining kayfiyatiga ham bog‘liq bo‘ladi. Ansambl bolalaridan birortasining kayfiyati yomon bo‘lsa, qolgan ishtirokchilarga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Asar tanlashda ham rahbar ansambl bolalarining qobiliyatlarini inobatga olsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ma’lumki, har bir cholg‘uchi o‘ziga xos, bir-biriga o‘xshamaydigan musiqiy his-tuyg‘ularga ega. Musiqqa rahbari ana shu his-tuyg‘ulardan ham foydalanishi mumkin. Asar haqida, asarning qaysi bo‘lagi, taktida qochirim, bezak, nola ishlatish lozimligi to‘g‘risida qatnashchilar fikrini bilib, yagona bir qarorga kelishi va ansambl qatnashchilariga bu qarorga kelish sabablarini tushuntira bilishi lozim.

Mashg‘ulot vaqti chegaralangandir. Uni tejamli va samarali o‘tkazish uchun rahbar oldindan tayyorgarlik ko‘rishi kerak. Yakka ish rejalarini tuzishi shart. Bu reja rahbar e’tibor berishi lozim bo‘lgan barcha ishlarni qamrab olishi lozim. Reja tuza turib, rahbar mashg‘ulot jarayonining umumiy zanjirida qatnashchining tutgan o‘rnini aniq ko‘z oldiga keltirishi, mashg‘ulot maqsadi va boshqa musiqiy predmetlar bilan o‘zaro aloqasini aniqlashi shart.

Ansambl a'zolariga katta zavq beruvchi kuch-bu konsert sahnasidir. Cholg'uchilar faqatgina mashg'ulot xonalarida shug'ullanmasdan, balki har xil turdagi konsertlar, tanlovlarda ishtirok etishlari yaxshi samara beradi. O'z kasbiga qiziqish, muhabbat uyg'otish uchun mashhur musiqachilar bilan uchrashuvlar o'tkazib turish foydadan xoli bo'lmaydi. Musiqa rahbari mashg'ulot olib borish etikasiga ham alohida e'tibor qaratishi lozim. Mashg'ulotlar har doim muntazam olib borilishi, musiqa rahbari kechga qolmasligi shu bilan birga, bolalardan ham mashg'ulotning o'z vaqtida boshlanishini talab qilishi ishning sifati va samaradorligini oshiradi

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Matyoqubov O. Maqomot. (ilmiy-ommabop monografiya) T., 2004.
2. Annakulova D MUSIQA MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA CHOLG'U ANSAMBLARINI TASHKILLASHTIRISH. (2025). *Modern Education and Development*, 21(1), 192-202. <https://scientific-jl.com/mod/article/view/3970>
3. Annakulova D BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGIDA DOSTON IJROCHILIGI AN'ANALARIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI <https://journals.nuu.uz/index.php/actanuuz/article/view/7175/3349>
4. КОНУРОВА ЛЕЙЛА РУСЛАНОВНА; НУРАЛИЕВ ЯХШИБОЙ. ОБУЧЕНИЕ ДЕТЕЙ ИГРЕ НА МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *European Journal of Interdisciplinary Research and Development* , [S. l.], v. 4, p. 122–126, 2022. Disponível em: <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/74>. Acesso em: 26 feb. 2025.